ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

№12
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 252 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari ....26
Xuseynova Abira Amanovna

Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication....31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna

Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash....35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna

Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari ....40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojialiyeva Sarvinoz Elyorjon qizi

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...44
Asatova Dildora Aslamovna

Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli....49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna

Insultdan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi ....52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna

The Concept of Symbols in Linguoculturology ....56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi

Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi....59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna

Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish ....63
Mitaliboyeva Dildora

Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish ....66
Nartayeva Shahnoza Yulchibayevna

Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari....71
Normatova Nilufar Komilovna

Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda)....76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya

Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish ....80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model....83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi

"Sab'ai sayyor" asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar ....87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi

Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri....91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna

Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish....95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li

Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish ....99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli ....102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ....106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo

Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili ....................109
**Xusanov Samariddin Maxmadaminovich**

Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari ....................112
**Yarashev Jo'rabek To'rayevich**

Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки ....................117
**Габдульманова Ильнура Минисламовна**

Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов ....................119
**Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи**

Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования....................124
**Уразова М. Б., Усманова У. Б.**

Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..130
**Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли**

Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи....................135
**Юсупова Зулайхо Бахром кизи**

Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati....................139
**Berkinova Charos Islomovna**

O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi ....................142
**Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi**

Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari ....................145
**Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi**

Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya ....................150
**Ergasheva Umrinisso Komilovna**

Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirsh omilidir....................153
**Ermatova Gulnoz Pirimovna**

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni ....................156
**Gazibekova Feruza Hakimovna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi....................159
**Haydarova Feruza Haydar qizi**

Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi....................162
**Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi....................165
**Jumayeva Malika Aliyevna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish....................168
**Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..172
**Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari....................175
**Masharipova Dilfuza Muxammatjon qizi**

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi ....................178
**Muhammadiyeva Feruza Turakulovna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi....................181
**Muhiddinova Munira Xayrullayevna**

Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi ....................184
**Narzullayeva Sevara Omonovna**

O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari....................187
**Nizamova Nodira Paxritdinovna**

Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi ....................191
**Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova**

Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi ........................................ 195
Nodira Sherboyeva

Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida ........ 198
O'ktam Nosirov

Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi ........................................ 204
Rustamova Shoxista Omonjonovna

Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari ........ 208
Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li

Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari ........ 212
Sa'dullayeva Rushana

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ........ 215
Saidova Dilbar Erkinovna

Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari ........ 218
Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi

Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish ........ 223
Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi

Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi ........ 226
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi

Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari ........ 229
Yaqubova Shoira Tog'aymuratovna

Emotsional intelektni rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 233
Yarmatov Raxmboy Baxramovich

Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojantirish ........ 239
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi

Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык ........ 242
Марупова Дилфуза Давроновна

Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari ........ 247
F. R. Xosilova

# INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNIY IZOHLANISHI

Oysha Qurbonova
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti (PhD)

Nodira Abduraimova
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarning nutqiy kompetensiya va nutqiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslanishi, ularning kommunikativ–nutqiy vaziyatda muloqot qilishi, tafakkur qilishi, nutqiy qobiliyatlarini o'stirish bo'yicha metodist, pedagog va psixolog olimlarning ilmiy qarashlari keltirilib, tahlil qilingan hamda ularga subyektiv munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, nutqiy kompetentlik, ilmiy-nazariy asoslanishi, kommunikativ–nutqiy vaziyat, muloqot, tafakkur qilish qobiliyatlari, matn ustida ishlash, subyektiv munosabat bildirish.

**Abstract:** This article examines the scientific and theoretical foundations for the development of students' speech competence and language skills, discusses the perspectives of methodologists, educators, and psychologists on the development of communicative and language abilities in communication and thinking situations, and also presents a subjective opinion on these matters.

**Key words:** students' speech competence, speech proficiency, scientific and theoretical justification, communicative-speech situation, communication, thinking abilities, working with text, expression of subjective attitude.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы научные и теоретические основы развития речевой компетенции и речевых навыков учащихся, освещены научные взгляды методистов, педагогов и психологов на развитие коммуникативных и речевых способностей в ситуациях общения и мышления, а также выражено субъективное мнение по этим вопросам.

**Ключевые слова:** речевая компетенция учащихся, речевая компетентность, научно-теоретическая обоснованность, коммуникативно-речевая ситуация, общение, способности к размышлению, работа с текстом, выражение субъективного отношения.

## KIRISH

Bugungi kunda ona tili darslarida o'quvchilarning bilimini, fikrlashini va yondashuvlarini tubdan oshirish bilan bir qatorda, ularning nutqiy kompetentligini yuqori darajada takomillashtirish ona tili fani o'qituvchisining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchilarning nutqiy kompetentligini kompleks holatda rivojlantirish ulardagi pragmatiklikni oshiradi. Shuningdek, ona tili darslarini tashkil qilish va uni o'tkazishda nutqiy kompetentlikni rivojlantiruvchi ta'limiy vositalardan biri – mashq va topshiriqlar to'plami hisoblanadi. Shunisi ham e'tirofga sazovorki, umumiy o'rta ta'lim tizimida har bir ona tili o'qituvchisining metodik jihatdan yondashilgan mashq va topshiriqlar to'plamiga ega bo'lishi ta'lim subyektlaridagi nutqiy kompetentlikni rivojlantirishga ko'mak beradi.

Bu xususda taniqli metodist olim T. G'aniyevning tadqiqot ishida[1] metodik ahamiyatga molik bo'lgan qarash o'z ifodasini topgan: "Agar topshiriq maqsadli, puxta o'ylangan holda tuzilsa, ya'ni birvarakayiga uch yoki to'rt nutqiy ko'nikmani shakllantirishga imkoniyat yarata olsa, nihoyatda foydali bo'ladi."

1 G'aniyev T. Ona tili bo'yicha mashqlar bajarish jarayonida o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish. Ped.fan. nomz. dissertatsiyasi avtoreferati.– T., 1991. – 12-b.

Shuningdek, muallifning fikricha:

"Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ona tili o'qituvchilarining hammasini ham tajribali, malakali, saviyasi bir xilda yuqori deb bo'lmaydi. Belgilangan dastur bo'yicha faoliyat olib borilayotgan va zamonaviy interfaol usullar dars jarayoniga tatbiq qilinayotgan bo'lsa-da, o'quvchilarda nutqiy kompetensiya kutilgandek rivojlanmayotgani tajriba-sinov jarayonida, qolaversa, oddiy kuzatuvlarda ham ma'lum bo'lyapti. Agar darsni qanday tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o'qitish o'qituvchining ixtiyoriga to'liq topshirib qo'yilsa, o'quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko'nikma va malakalari bir xil bo'lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma'noda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo'lib qoladi."[2]

Ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanib darsni tashkil etish ulardagi nutqiy kompetentlikni oshiradi.

O'qish nutqiy faoliyatning bir ko'rinishi tarzida asoslaniladi. A. L. Leontev, I. A. Zimnyaya, G. V. Rogova va boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, nutqiy kompetensiya va uni tushunish mexanizmlarida ma'lum o'xshashlik (analogiya) mavjud bo'ladi. Muallif matnni olgach, belgilangan barcha ma'lumotlarni kitobxon ongiga yetkazishga harakat qiladi, buning uchun esa gipotetik o'quvchiga tanish bo'lgan logik argumentatsiya qonunlari asosida o'z matnini tuzadi. Muallifning matn tuzishiga qarab, ushbu matnning boshqalar tomonidan to'g'ri qabul etilishiga, tushunishning ma'lum jihatlari va matnning struktur tashkil etilishi o'rtasidagi qonuniy aloqalar haqida gapirish mumkin.[3]

N. F. Koryakovseva esa o'qish nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun mustaqil o'qish jarayonida badiiy, publitsistik va gazeta matnlaridan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. U nafaqat informatsion, balki lingvistik va filologik ma'lumotlarning manbaini ham mustaqil o'qish uchun taklif qiladi.[4]

"O'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi." Ona tili darslari o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishda katta imkoniyatlarga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishga oid nazariy va amaliy ma'lumotlar yig'ildi hamda tahlil qilindi. Ma'lumotlar, avvalo, tilshunoslik, psixologiya va pedagogika sohalaridagi ilmiy manbalar, darsliklar, metodik qo'llanmalar, tajriba-sinov materiallari va mazkur yo'nalish bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy izlanishlarni o'rganish orqali to'plandi. Shuningdek, ona tili darslarida kuzatuv, o'quvchilarning nutqiy faoliyati namunalarini tahlil qilish, o'qituvchilarning metodik yondashuvlarini o'rganish hamda interfaol mashqlar qo'llanish jarayonini monitoring qilish orqali empirik ma'lumotlar olindi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy–semantik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va integrativ yondashuv tamoyillarini aniqlash asosida qayta ishlanib, nutqiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini belgilashga xizmat qildi. Tahlil natijalari orqali nutqiy rivojlanishga ta'sir etuvchi lingvistik, psixologik va kommunikativ omillar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi integrativ yondashuv doirasida baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali fikr vujudga keladi. Fikrlash faoliyati esa nutq holatida namoyon bo'ladi. Demak, o'quvchi o'z tafakkurini rivojlantirmay turib, og'zaki va yozma nutqni egallay olmaydi[5]. Nutqiy kompetensiyani o'quvchilarda rivojlantirishdan asosiy maqsad – o'qish, tinglab tushunish, so'zlash va yozishga bo'lgan motiv va qiziqishlarini, shuningdek, yozma nutq uchun o'zbek adabiy til me'yorlariga asoslangan bilim va ko'nikmaning mujassamlashgan shaklini hosil qilishdan iboratdir. Bu jarayonning idrok qilish va uni tushunish talablari hamohanglikda izohlab borilishi maqsadga muvofiq.

2 Hamrayev G'.H. Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish: ped. fan. dok. (PhD) diss. – Samarqand: 2019. – 13 b.
3 Леонтьев А.А. Психолингвистические и социолингвистические проблемы билингвизма в свете методики обучения неродному языку. Психология билингвизма. М., 2004. –С. 26-27. –448 с.
4 Коряковцева, Н.Ф. Современная методика Организации самостоятельной работы изучающих иностранный язык: Пособие для учителей / Н.Ф. Коряковцева. – М.: АРКТИ, 2002. – 176с.
5 A.G 'ulomov,M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. Ona tili o'qitish metodикasi. –T.: "Fan va texnologiya", 2012, 78 бет.

**Yondashuvli aspektlar asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishdagi semantikaviy mazmun:**

**Nutqiy kompetentlik rivojida ma'nolar, yondashuvlar yig'indisi, kommunikativlikning o'ziga xosligi**

| Lug'aviy ma'no | Aksiologik yondashuv | Kommunikativ sifatlar |
|---|---|---|
| Subyektiv ma'no | Kontekstli yondashuv | Kommunikativ ierarxiya |
| Obyektiv ma'no | Integrativ yondashuv | Kommunikativ vaziyat |

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy kompetentlikni rivojlantirishda lug'aviy ma'no nutq jarayonida e'tibor bilan yondashishni talab qiladi.

Tilshunos A. Sodiqov esa nutq faoliyatini: "Nutq faoliyati ikki tomonlama hodisa bo'lib, u ham psixologik, ham ijtimoiy hodisadir. Nutq faoliyati, avvalo, odamlarning til yordamida bir-biri bilan muloqotda bo'lish akti, ya'ni ikki ijtimoiy akt jarayonidir", – deb ta'riflaydi[6]. Nutqiy faoliyat orqali tinglovchi va so'zlovchi kommunikativligi, o'zaro muloqoti aks etadi.

O'zbek psixolog olimlaridan E. G'oziyev nutq faoliyatini inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga berish (uzatish) yoki kommunikatsiyaga o'rgatish, shuningdek, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni sifatida ta'riflaydi.[7]

"Integratsiya" so'zi lotincha *integratio* – tiklash, to'ldirish, *integer* – butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki asosiy tushuncha mavjud:

1. Tizim va organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.
2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.[8]

A. Yu. Serebryakova e'tiroficha, "kommunikativ vaziyat qabul qiluvchiga qaratilgan nutqda taqdim etilgan muloqotning tashqi sharoitlari va ichki holatlarining murakkab majmui sifatida tushuniladi. Bu kompleks, bir tomondan, nutqni hosil qiladi, ikkinchi tomondan, nutqda uning muhim tarkibiy qismlarini aks ettiradi."[9]

Kommunikativ vaziyat aytilayotgan so'z va nutqdagi gaplarning miya faoliyatida mazmun kasb etib shakllanishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish me'yorlariga amal qilish, ovoz va mimikaning o'rinli qo'llanilishi bilan uzviy bog'liq.

D. Hymes[10] tomonidan muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida "kommunikativ vaziyat" tushunchasi kiritilgan. Avval "nutq hodisasi" tushunchasi qo'llangan bo'lsa, keyinchalik bu atama "kommunikativ hodisa" tushunchasi bilan almashtirilgan.

V. G. Gakning fikricha, "kommunikativ vaziyat obyektiv voqelikdagi so'zlovchining ongida so'zlash paytida mavjud bo'lgan va ma'lum darajada frazeologik birliklarning shakllanishida lingvistik elementlarning tanlanishiga ta'sir qiluvchi referent vaziyatni yuzaga keltiradi."

Integrativ yondashuv o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda komunikativ ierarxiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonda shaxsiy nutq, kommunikativ vaziyatdagi ishtirokchilar nutqi mutanosiblikda kommunikativ jihatdan subyektiv munosabat bildirishni nazarda tutadi.

Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi aspektlar muhimdir:

- o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishda asosiy e'tibor ularning o'qish va so'zlash mahoratini egallashga qaratilishi;
- ona tili darsini tashkil qilishda aniq, tushunarli so'zlashni, mantiqqa asoslangan gapirishni ta'minlash va nutq vositalaridan unumli foydalanishga yo'naltirish;
- ona tilini o'qitishda integrativ asosga ega bo'lgan fanlar aloqadorligini ta'minlash va shu asosda o'quvchilarning bilimini, so'z boyligini oshirish, subyektiv munosabat bildirish madaniyati hamda o'zini o'zi boshqarish madaniyatini algoritmik darajada rivojlantirishga erishish.

6 Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.-T.:"O'qituvchi", 1981. – 76 b.
7 G'oziyev E. Psixologiya. T.: "O'qituvchi". 2003. – 295 b.
8 Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlangich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O'quv qo'llanma. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 210 b.
9 Серебрякова, А.Ю. О компонентах коммуникативной ситуации / А.Ю. Серебрякова // Вестник ЮУрГУ, 2009. – №25. – С. 30–32.
10 Hymes, D. Models of the Interaction of Language and Social Life / D. Hymes // Directions in Sociolinguistics: Ethnography of Communication. Eds J.J. Gumperz and D. Hymes. – N. Y.: Holt, Rinehart and Winston, 1972. – P. 35– 71.

Demak, integrativ yondashuv asosida oʻquvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni – lisoniy sathlar boʻyicha egallangan bilimlarga tayangan holda oʻquv-taʼlimiy vositalardan unumli foydalanish, taʼlim oluvchilarda kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish, oʻzbek adabiy til meʼyorlari, nutqiy etiket va muloqot odobiga amal qilish hamda kommunikativ masalalarni qadriyatli, sermazmun, taʼsirli soʻzlar orqali hal etish imkonini beradi.

Nutqiy kompetentlikni rivojlantirishda kommunikativ vaziyat kabi nutq faoliyatiga oid meʼyoriylik, nutqiy etiket va axloqiylik kabi fazilatlar namoyon boʻlishida ham yuqori samaradorlik kuzatiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, oʻquvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni integrativ yondashuvga tayanilgan holda amalga oshirilganda samaradorlik sezilarli darajada ortadi. Integrativ yondashuv oʻquvchilarning lugʻaviy, grammatik, kommunikativ, aksiologik va kontekstual koʻnikmalarini oʻzaro uygʻunlikda shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda tafakkur va nutq bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, oʻquvchining mantiqiy fikrlashi, mazmunni idrok etishi va oʻz fikrini erkin, aniq va adabiy meʼyorlarga mos holda bayon qilishiga imkon yaratadi. Nutqiy faoliyatning psixologik va ijtimoiy jihatlari uygʻun rivojlanganda oʻquvchilar muloqot madaniyati, nutqiy etiket va kommunikativ vaziyatni anglash kompetensiyalariga ega boʻladilar.

Taklif sifatida, ona tili darslarida integrativ yondashuvga asoslangan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, fanlararo bogʻliqlikni kuchaytirish, mustaqil oʻqish va matn tahlili jarayonlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, nutqiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan muntazam foydalanish, oʻquvchilarda subyektiv munosabat bildirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash koʻnikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Hamrayev Gʻ. H. Umumiy oʻrta taʼlim tizimida fonetikaga doir oʻquv materiallarining metodik taʼminotini takomillashtirish: ped. fan. dok. (PhD) diss. – Samarqand, 2019. – 13 b.
2. Hymes, D. Models of the Interaction of Language and Social Life // Directions in Sociolinguistics: Ethnography of Communication. Eds. J. J. Gumperz and D. Hymes. – N. Y.: Holt, Rinehart and Winston, 1972. – P. 35–71.
3. Леонтьев А. А. Психолингвистические и социолингвистические проблемы билингвизма в свете методики обучения неродному языку. Психология билингвизма. – М., 2004. – С. 26–27. – 448 с.
4. Коряковцева Н. Ф. Современная методика организации самостоятельной работы изучающих иностранный язык: Пособие для учителей. – М.: АРКТИ, 2002. – 176 с.
5. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: Oʻqituvchi, 1981. – 76 b.
6. Серебрякова А. Ю. О компонентах коммуникативной ситуации // Вестник ЮУрГУ, 2009. – №25. – С. 30–32.
7. Gʻaniyev T. Ona tili boʻyicha mashqlar bajarish jarayonida oʻquvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish. Ped. fan. nomz. dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 1991. – 12 b.
8. Gʻoziyev E. Psixologiya. – T.: Oʻqituvchi, 2003. – 295 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.